



“INSON VA TIL: LINGVISTIKANING ROLI”

Muallif: Uktamova Barchinoy Sherali qizi¹

Affiliyatsiya: O`zDJTU ingliz filologiyasi fakulteti 1-bosqich talabasi¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15175253>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola lingvistika fanining asosiy yo'nalishlarini va ularning zamonaviy ilmiy tadqiqotlardagi o'rni va ahamiyatini ko'rib chiqadi. Maqolada, tilshunoslikning asosiy yo'nalishlari fonologiya, morfologiya, sintaksis, semantika, va pragmatika tahlil qilinadi. Tadqiqotda til va madaniyat o'rtaсидаги о'заро bog'liqlik va tilshunoslikdagi zamonaviy yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Maqola tilshunoslar, pedagoglar va talabalar uchun foydali bo'lib, lingvistika fanining amaliy va nazariy jihatlarini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Lingvistika, tilning tuzilishi, grammatika, fonetika, semantika, sintaksis, morfologiya

KIRISH

Tilshunoslik (lingvistika)-tillarni (barcha mavjud tillarni, qachonlardir mavjud bo'lgan tillarni, va kelajakda paydo bo'luvchi tillarni) shuningdek umuman inson tilini o'rganuvchi fan. Lingvistika termini qator Yevropa mamlakatlari: ingliz, nemis, fransuz, rus va ispan tillarida faol qo'llanilib, til haqidagi fanni anglatadi. Ushbu so'zning o'zagi lingua bo'lib, til degan ma'noni beradi. Tilshunoslik fani tilning boshqa hodisalar ichida tutgan o'rni, tuzilishi, taraqqiy etish qonuniyatlarini, til haqidagi fanning asosiy tushunchalarini o'rganadi. U murakkab til hodisalari va ularning qonuniyatlarini to'g'ri anglab yetish, qarindosh va qarindosh bo'limgan tillar guruhlarini. bir-biriga solishtirib, tilning lug'at tarkibi, fonetik tizimi va grammatik qurilishini ilmiy asosda chuqur o'rganish uchun nazariy va amaliy jihatdan zamin yaratishga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Til – inson tafakkuri va muloqotining assosi bo'lib, u shaxsning shakllanishida, jamiyat taraqqiyotida va madaniy merosni avloddan-avlodga yetkazishda muhim rol o'ynaydi. Lingvistika esa tilni o'rganadigan ilmiy soha sifatida inson hayotining turli jabhalarida katta ahamiyat kasb etadi. Lingvistika yoki tilshunoslik fani o'ziga xos murakkab ijtimoiy hodisa bo`lgan aloqa qurolini-tilni sistema sifatida-bir butun obyekt sifatida tadqiq va tahlil qiladi. Lingvistika nihoyatda qudratli ma`naviyat belgisi, millat boyligi bo`lgan tilni o'rganish jarayonida quyidagilar ko`rinishida namoyon bo`ladi:

1. Fonetik va fonologik lingvistika

Fonetika (yunoncha: phonetikos — tovushga, tovush chiqarishga oid; tovushli, ovozli) — tilshunoslikning nutq tovushlarining hosil bo'lish usullarini va akustik xususiyatlarini; bo'g'in, nutqning pauza bilan ajraluvchi qismlarini o'rganuvchi bo'limi.

Fonologiya (fono... va ...logiya) — tilshunoslikning til tovush qurilishining strukturaviy (tuzilmaviy) va funksional (vazifaviy) qonuniyatlarini, tilning eng mayda, ma'no bildirmaydigan birliklari — bo'g'inlar, fonemalarning tuzilishi va amalda qo'llanishini o'rganuvchi bo'limi. Fonologiyaning fonetikadan farqi shundaki, uning diqqat markazida fizik hodisa sifatidagi toyushlarning o'zini emas, balki ularning nutqda yanada murakkabroq ma'noli birliklar — morfemalar, so'zlarning tarkibiy qismi sifatida bajaradigan vazifasini o'rganish turadi.

2. Morfologik lingvistika

Morfologiya (yun. morphē – shakl, logos-fan, ta`limot degan manoni anglatadi) (tilshunoslikda) – 1) tilning morfologik qurilishi; 2) so'z shakllari haqidagi ta'limot. Birinchi ma'nosida obyektni anglatsa, ikkinchi ma'nosida tilshunoslikning shu obyektni o'rganuvchi bo'limini bildiradi. U shuningdek 3ta katta guruhga bo'linadi: 1) mustaqil so'z turkumlari; 2) yordamchi so'zlar; 3) oraliqdagi sozlar (alohida olingen so'zlar).

3. Sintaktik lingvistika

Sintaktika (yun. syntaktikos — tartib bilan tuzuvchi, tartibga soluvchi) — semiotikatIng turli belgi tizimlari sintaksisini, ya'ni belgi birikmalari tuzilishini, bu tizimlarning shakllanish va o'zgarish qoidalarni ularning ma'nolariga hamda belgi tizimlarining har qanday vazifalariga qiyoslamay o'rganuvchi bo'limi. Semiotik bo'linishda, asosan, nutq zanjirida va umuman vaqt (zamon) izchilligida belgilar orasidagi munosabat sifatida ta'riflanadi.

4. Semantik lingvistika

Semantika lingvistik ma'noni o'rganadi. Ma'no nima ekanligini, so'zlarning qanday ma'no olishini, murakkab iboraning ma'nosini uning qismlariga qanday bog'liqligini tekshiradi. Ushbu jarayonning bir qismi sezgi va mos yozuvlar o'rtasidagi farqni o'z ichiga oladi. Sezgi ifoda bilan bog'liq bo'lgan g'oyalar va tushunchalar bilan beriladi, havola esa ifoda ishora qiladigan obyektdir. Semantika grammatic jihatdan to'g'ri jum'lalarni qanday yaratishni belgilaydigan qoidalarni o'rganadigan sintaksis va odamlarning muloqotda tildan qanday foydalanishini o'rganadigan pragmatikaga qarama-qarshidir.

5. Pragmatik lingvistika

Pragmatika (yun. pragma, pragmatos — ish, harakat) — semiotika va tilshunoslikning nutqda til belgilarining amal qilishini o'rganuvchi sohasi; boshqacha aytganda, muayyan belgilar tizimini o'zlashtirib, undan foydalanuvchi sub'yektlarning ayni shu belgilar tizimiga munosabatini o'rganuvchi fan tarmog'i.

6. Psixolingvistika

Psixolingvistika psixologiya va lingvistika fanlarining umumlashmasi (sintezi) sifatida nutq jarayonini mazmun nuqtayi nazaridan, kommunikativ ahamiyati, nutq aktining muayyan ijtimoiy-amaliy maqsadga yo`naltirilganligi, shunga muvofiqligi jihatidan o`rganadi. U nutqdagi -fikr ifodalashdagi shakl va mazmun birligiga alohida e`tibor beradi. Psixolingvistika lisoniy imkoniyatlar asosida nutqiy birliklarni hosil qilish va qabul qilish, nutq jarayoni (fikr almashtirish-ifodalash va anglashda ruhiy holatlarga, bunda sharoit (situatsiya), o`xshashlik (analogiya), farqlash (differensiatsiya), ta`sirchanlik, so`zlovchi va tinglovchi ruhiy holati masalalariga alohida e`tibor beradi.

7. Kompyuter lingvistikasi

Tilni kompyuter texnologiyalari yordamida tahlil qilish va qayta ishlash bilan shug'ullanadi. Kompyuter lingvistikasi amaliy tilshunoslikning bir bo`limi bo`lib, uning asosiy maqsadi tilshunoslikka oid muammolarni kompyuter vositasida, bevosita uning "rahbarligida" hal qilishdir. Aniqrog`i, kompyuter lingvistikasi tillarni o`qitish (o`rganish) muayyan fanga oid bilimlarni baholash, matnlarni tahrirlash, bir tildan ikkinchi bir tilga tarjima qilish, statik tadqiqotlar olib borish kabi qator jarayonlarda xizmat qilmoqda.

8. Sinxron lingvistika

Sinxron lingvistika statik va struktural lingvistika bilan uzviy bog`liq bo`lib, tilning ma`lum bir davrdagi "qotgan", "turg`un", holatini tasvirlashga xizmat qiladi.

9. Diaxron lingvistika

Diaxron lingvistika dinamik va atomistik lingvistika bilan uzviy bog`liq bo`lib, tilning taraqqiyot, til birliklarining esa rivojlanish qonuniyatlarini hamda natijalarini o`rganadi.

10. Ekstralolingvistika (tashqi lingvistika)

Sotsiolingvistika va mentalingvistikani o`zida birlashtiradigan, tilni ijtimoiy hodisa sifatida o`rganuvchi fandir. Bunda sotsiolingvistika tilning tabiatini va ijtimoiy vazifasini, mentalingvistika esa til va tafakkur, tilning mazmun tomonini o`rganadi.

11. Intralingvistika (ichki lingvistika)

Tilning ichki tizimini, uning birliklari va kategoriyalari, tilning yaruslari hamda ularning tuzilishini o`rganadi. Fonologiya, leksikologiya va grammatika intralingvistikaning asosiy bo`limlari hisoblanadi.

12. Makrolingvistika (katta tilshunoslik)

Tilning paydo bo`lishi va uning taraqqiyot qonunlarini, tilning ijtimoiy mohiyatini: uning tafakkur bilan munosabatini, til va boshqa signal sistemalari orasidagi o`xshashlik va farqlarni, tilning tarqalishi, yangi til masalalari kabi muammolarni o`rganadi.

13. Mikrolingvistika (kichik tilshunoslik)-tilning faqat ichki, ya`ni fonetik, leksik va grammatik tuzilishini o`z ichiga oladi.

14. Statik lingvistika

Statik lingvistika til faoliyatidagi to`liq sinxronlashgan bir davrni (bo`lakni) ajratadi va uni tasvirlaydi. Tilshunoslikning ushbu sohasi, dinamik lingvistikadan farqli, tildagi rivojlanish va o`zgarish jarayonidan mutlaqo chetlashgan, unga yaqinlashmagan holda tilning hozirgi- zamonaviy davri bilan bog`liq ma`lum bir "qotgan" qismini holatini tekshiradi.

15. Dinamik lingvistika

Dinamik lingvistika, asosan, tilni real mavjudligida, kommunikativ jarayonda turlicha vazifalarni faol bajarishda, "taraqqiyotda" o`zgarishda tadqiq qiladi.

14. Sotsiolingvistika:

Sotsiolingvistika (lot societas — jamiyat va lingvistika) — tilshunoslik, sotsiologiya (jamiatshunoslik), ijtimoiy psixologiya va etnografiya fanlari tutashmasida rivojlanuvchi va tilning ijtimoiy tabiatini, uning ijtimoiy vazifalari, tilga ta'sir ko`rsatish mexanizmi hamda tilning jamiyat hayotida tutgan o`rni bilan bog`liq ko`plab muammolar majmuyini o`rganuvchi ilmiy nazariy soha hisoblanadi. Ushbu muammolarning ayrimlari („til va jamiyat“) umumiy tilshunoslik doirasida ham o`rganiladi. Sotsiolingvistikaning fanlar aro-

maqomi u foydalanadigan tushunchalar majmuyida namoyon bo'ldi. O'tgan asrning 70—80 yillaridagi ayrim sotsiolingvistik izlanishlar bir tomonlama — o'sha vaqtagi til siyosati nuqtai nazari va talablari asosida olib borilgan. Sotsiolingvistikadagi me'yoriylik mezoni deyilganda tilning muayyan me'yorlar asosida muvofiqlashtiriluvi tushuniladi. Til grammatikasiga oid qonun-qoidalarning yaratilishi me'yorlashtirishning muhim omillaridan hisoblanadi. Sotsiolingvistoka, asosan, til va ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy hayot, taraqqiyot hodisalari, faktlari o'rutasidagi bog`liqlikning sabablarini o`rganadi. Anig`i, mazkur sifat jamiyatning yashash va rivojlanishida tildagi ijtimoiy hayot, ya`ni, tashqi-ekstraliningvistik faktorlarning (omillarning)ta`siri natijasida hosil bo`lgan hodisalarni, jarayonlarni, o`zgarishlarni tahlil qilib boradi.

15. Etnolingvistika:

Etnolingvistika (etno... va lingvistika) — tilshunoslikning til va til egasi bo`lgan xalq orasidagi bog`liqlik hamda munosabatlarni, til rivoji vazifaviy xususiyatlariga lisoniy, etnik omillarning birgalikdagi ta`sirini o`rganuvchi sohasi. Til bilan etnik xususiyatlarning o`zaro munosabati, bir-biriga ta`siri ikki tomonlama bo'ldi: etnik omillar (etnosning urfodatlari, milliy an'analari, falsafiy, diniy qarashlari va boshqalar)ning til rivojiga ta`siri va, aksincha, til vazifaviy imkoniyatlarining etnos va etnik xususiyatlarning shakllanishiga ijobiy ta`siri.

16. Kognitiv lingvistika:

Kognitiv tilshunoslik — til va ong o'rtasidagi munosabatlar muammolarini, dunyoni kontseptuallashtirish va turkumlashtirishda tilning rolini, kognitiv jarayonlarda va inson tajribasini umumlashtirishda, insonning individual kognitiv qobiliyatlar bilan bog`liqligini va til va ularning o`zaro ta`siri shakllarini o`rganadigan tilshunoslik yo'naliishi. Umuman olganda, kognitivizm — bu fikrlash jarayonlarini boshqaradigan, umumiyl tamoyillarni o`rganishni birlashtirgan fanlar majmuidir. Shunday qilib, til fikrlash jarayonlariga kirish vositasi sifatida taqdim etiladi. Insoniyat tajribasi, uning tafakkuri aynan tilda muqimdir; til — kognitiv mexanizm, ma'lumotni maxsus kodlashtiradigan va o'zgartiruvchi belgilar tizimi.

XULOSA

Lingvistika inson tili va nutqini har tomonlama o`rganadigan fan bo`lib, uning asosiya maqsadi tillarning tuzilishi, rivojlanishi va qo'llanilishiga ilmiy yondashishdir. Lingvistika nafaqat nazariy bilimlarni o`rganish, balki tarjima, sun'iy intellekt, kommunikatsiya va xorijiy tillarni o'rgatish kabi amaliy sohalarga ham ta`sir ko'rsatadi. Zamonaviy dunyoda bu fan texnologiya va madaniyatlararo muloqotda muhim rol o'ynab, tilning taraqqiyoti va insoniyatning bilimlarini boyitishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, u ta`lim oluvchiga ona tili imkoniyatlarini, bir fikrni yuzlab fikrlar orqali ifodalash yo'llarini ko`rsatib beradi va milliy g`urur, milliy mafkurani shakllantirishda mustahkam poydevor vazifasini o`taydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ravshanxo`ja Rasulov.Umumiyl tilshunoslik.-t.,2007/2010
2. Irisqulov M.T.Tilshunoslikka kirish.-T.,2008.
3. Muhammedova S., Yo`ldoshev I., Majidova R., Sharipova O., To`xtamatov X.Tilshunoslik asoslari.-Elektron darslik.

4. Tilshunoslik nazariyasi [Matn] : darslik / Zulkumor Xolmanova.-Toshkent : Shafoat Nur Fayz, 2020.-256 b.
5. Zamnaviy lingvistika: o`quv qo`llanma/ A.E.mamatov.-Toshkent.: "Noshir" nashriyoti,2019.168 bet.
6. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Bosh_Sahifa
7. <https://arxiv.uz/uz/>

